OROLNI QURIGAN TUBINING TUPROQ-GURUNTLARINING MORFOLOGIK BELGILARI

[1]Jabbarov Z.A., [2]Nomozov U.M., [1]Imomov O.N., [1]Abdullaev Sh.Z.
[1]O'zbekiston Milliy universiteti
[2]Samarqand davlat veternariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali

Tadqiqotning maqsadi. Qurigan Orol tubining tuproq-guruntlarini xossa-xususiyatlari o'rganilib, iqlim sharoitlariga mos ekin turlarini ekish bo'yicha tavsiyalar berishdan iborar.

Tadqiqot natijalari. Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida qurigan Orol tubining sharqiy qismining tuproq-guruntlari morfologik belgilari o'rganish natijasida jami 10 ta tuproq kesmalari qazildi va tuproq namunalari olindi. Olingan tuproq namunalari tuproqni analiz qilish uchun laboratoriya xonalariga olib kelindi va boshlang'ich analizga tayorlash ishlari olib borilmoqda.

Olimlar tomonidan cho'l qumli tuproqlarni o'rganish natijasida Orol dengizi tubining qurib qolgan hududlarida tuproq profilidagi yer osti suvlarining kuchli bug'lanishi natijasida tuz kristallarining intensiv to'planish jarayoni sodir bo'lib, cho'l qumli tuproqlari juda sho'rlangan, ba'zan esa juda sho'rlangan. , unda quruq qoldiq o'rtacha 0,439% dan 1,147% gacha bo'lgan, shu bilan birga, sho'rlanish turi sulfat-xlorid ekanligi aniqlangan [Ismonov A., va boshq. 2024].

Orol dengizini qurigan tubining janubiy qismi "0" nuqtadagi tuproq-gruntlari tarkibida zaharli tuzlar miqdori juda yuqori bo'lib, bunday maydonlar katta hududlarni tashkil etadi. Ushbu hududdagi tuproq-gruntlari (0-30 sm) qatlamlarda umumiy quruq qoldiq miqdori 1,454% dan 1,678% orasida va umumiy ishqoriylik bo'yicha HCO_3 miqdori 0,063% dan 0,088% orasida ekanligi aniqlangan, tahlil natijalariga ko'ra hududning ekologik-meliorativ holati yomonlashib borayotganligi aniqlangan [Abdrahmanov T. va boshq. 2024]. Olimlarni o'rganishicha Orol dengizida olib borgan tadqiqotlar natijalari asosida Orol dengizining yo'q bo'lib ketishi XX asrning eng yirik ofatiga aylanganligini takidlab o'tadi. Orol dengizi o'zining yo'qolishi bilan tabiiy muhitlarini o'zgartiradi biologik, va zoologik xilma-xillik, aholi salomatligi salbiy ta'sir ko'rsatishda davom etadi [Kurbanova N va boshq. 2024].

Xulosa. Orol dengizini qurishi oqibatida katta maydonda qum barxanlari va tuzlar ochilib qolgan, bu qum va tuzlar atmosferaga chang zarrachalari bilan ifloslanishi ortib borishi natijasida atrof-muhitni ifloslanishi va tuproq qoplamlarini sho'rlanishi ortib bormoqda. Bu jarayonlarni oldini olishning yo'llari ustida ko'pgina tadqiqot ishlari bajirilmoqda. Orolda hayotni barpo qilishni va chang to'zonlarni atmosveraga ko' tarilishini oldini olishni birdan bir yo'llaridan tuproq-gurun xossa-xususiyatlarini o'rganilib iqlim sharoitlariga mos o'simlik turlarini ekilishi orqali chang to'zonlarni kamayishga erishilishi mumkin.

Izoh:Ushbu maqola FL-8323102111-R1 "Orol dengizining qurigan tubi hududida tarqalgan tuproq-gruntlarining sho'rlanganlik holati, fizik, kimyoviy va biologik xossalariga ko'ra o'simliklar ekish hududlarini guruhlashning ilmiy asosini yaratish" mavzusidagi loyiha doirasida amalga oshirilgan.